




*(2022- yil yanvar-mart oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **265,4** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **99,8 %** ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)


	2021- yil	2022- yil	O'tgan yilga nisbatan, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi	266,1	265,4	99,8	x
Eksport 	107,3	123,2	114,9	100,0
 tovarlar	105,1	121,9	116,0	98,9
 xizmatlar	2,2	1,3	58,1	1,1
Import 	158,8	142,2	89,5	100,0
 tovarlar	148,1	139,0	93,9	97,8
 xizmatlar	10,7	3,2	29,8	2,2
Saldo 	- 51,5	- 19,0	x	x

Ma'lumot uchun: Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Navoiy viloyati jahonning **55** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Kanada (**24,5** %), Rossiya Federatsiyasida (**21,5** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**16,1** %), Qozog'istonda (**11,6** %) va Turkiyada (**4,6** %) qayd etilgan.

NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2022- yil yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Kanada	65,1	63,8	1,3	24,5
Rossiya Federatsiyasi	57,1	25,5	31,6	21,5
Xitoy Xalq Respublikasi	42,7	0,9	41,8	16,1
Qozog'iston	30,7	4,2	26,5	11,6
Turkiya	12,3	7,1	5,2	4,6
Yaponiya	8,5	-	8,5	3,2
Koreya Respublikasi	6,4	0,1	6,3	2,4
Fransiya	6,1	5,5	0,6	2,3
Hindiston	4,1	-	4,1	1,6
Afg'oniston	3,8	3,8	-	1,4

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Afg'oniston bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, Turkmaniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Kanada, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Fransiya, Hindiston, Germaniya, Eron Islom Respublikasi va Litva hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Kanada	23,2	47,1	65,1
<i>Eksport</i>	23,2	45,4	63,8
<i>Import</i>	-	1,7	1,3
Rossiya Federatsiyasi	37,0	36,2	57,1
<i>Eksport</i>	10,6	8,0	25,5
<i>Import</i>	26,4	28,2	31,6
Xitoy Xalq Respublikasi	33,0	47,5	42,7
<i>Eksport</i>	2,1	30,6	0,9
<i>Import</i>	30,9	16,9	41,8
Qozog'iston	18,4	14,5	30,7
<i>Eksport</i>	1,2	2,9	4,2
<i>Import</i>	17,2	11,6	26,5
Turkiya	12,4	18,8	12,3
<i>Eksport</i>	6,9	9,4	7,1
<i>Import</i>	5,5	9,4	5,2
Yaponiya	2,4	10,6	8,5
<i>Eksport</i>	0,2	-	-
<i>Import</i>	2,2	10,6	8,5
Koreya Respublikasi	23,3	10,0	6,4
<i>Eksport</i>	-	-	0,1
<i>Import</i>	23,3	10,0	6,3
Fransiya	41,2	1,6	6,1
<i>Eksport</i>	41,0	-	5,5
<i>Import</i>	0,2	1,6	0,6
Hindiston	0,2	0,8	4,1
<i>Eksport</i>	-	0,1	-
<i>Import</i>	0,2	0,7	4,1
Afg'oniston	0,2	1,4	3,8
<i>Eksport</i>	0,2	1,4	3,8
<i>Import</i>	-	-	-

NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Qirg'iz Respublikasi	12,3	1,5	3,7
<i>Eksport</i>	12,2	1,2	3,1
<i>Import</i>	0,1	0,3	0,6
Turkmaniston	1,3	2,0	3,7
<i>Eksport</i>	1,1	1,4	2,8
<i>Import</i>	0,2	0,6	0,9
Germaniya	2,9	2,9	3,6
<i>Eksport</i>	0,1	-	-
<i>Import</i>	2,8	2,9	3,6
Eron Islom Respublikasi	0,4	2,2	3,4
<i>Eksport</i>	-	0,1	0,2
<i>Import</i>	0,4	2,1	3,2
Litva	25,4	18,8	2,6
<i>Eksport</i>	1,1	2,3	2,0
<i>Import</i>	24,3	16,5	0,6
Tayvan	-	-	1,7
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	1,7
Tojikiston	0,1	0,5	1,3
<i>Eksport</i>	0,1	0,4	1,3
<i>Import</i>	-	0,1	-
Italiya	1,8	1,7	1,1
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,8	1,7	1,1
Singapur	0,5	1,3	1,1
<i>Eksport</i>	0,4	1,3	1,1
<i>Import</i>	0,1	-	-
Polsha	1,5	-	0,8
<i>Eksport</i>	0,2	-	0,6
<i>Import</i>	1,3	-	0,2

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-mart)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	265 384,8	99,8
Navoiy sh.	132 673,3	75,5
Zarafshon sh.	2 578,3	48,1
G'ozg'on sh.	252,4	3,6 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	88 274,7	151,9
Konimex	187,8	62,9
Qiziltepa	10 662,4	3,3 b.
Navbahor	8 328,0	155,1
Nurota	1 795,6	147,9
Tomdi	239,1	9,5
Uchquduq	8 414,5	4,4 b.
Xatirchi	2 181,0	21,3
Bo'linmaydigan hajm	9 797,7	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 132 673,3

Karmana t. – 88 274,7

Qiziltepa t. – 10 662,4

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

G'ozg'on sh. – 252,4

Tomdi t. – 239,1

Konimex t. – 187,8


Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **50,0 %** ulush bilan **132 673,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Konimex tumani **0,1 %** ulush bilan **187,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **36,8 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-mart oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan **83,8 %** ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **63,2 %** ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2022- yil yanvar-mart)



Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **123,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,9** % ni tashkil etdi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**58,8** %), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**16,2** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**16,1** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-mart, yillar kesimida)




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami eksport	107,3	123,2	114,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,8	4,6	123,1	3,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,1	-	0,1
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,7	20,0	7,5 b.	16,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,3	0,7	54,3	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	73,3	72,5	99,0	58,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	20,4	19,8	97,0	16,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,3	1,0	3,1 b.	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	3,3	3,2	98,1	2,6
Xizmatlar	2,2	1,3	58,1	1,1

2022- yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2021- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2021- yilning mos davriga nisbatan noziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, mashinalar va transport asbob-uskunalari hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi **123,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*



2022- yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga **37,4** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **30,4 %** ini tashkil etdi.

NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022- yil yanvar-mart, % da)*



2022- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Kanada (eksport umumiy hajmining **51,8 %**), Rossiya Federatsiyasi (**20,7 %**), Turkiya (**5,7 %**), Fransiya (**4,5 %**), Qozog'iston (**3,4 %**), Afg'oniston (**3,0 %**) va Qirg'iz Respublikasi (**2,5 %**) saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi **91,6 %** ni tashkil etmoqda.

NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'рни
	2021	2022		
Kanada	45 422,5	63 813,2	140,5	1
Rossiya Federatsiyasi	7 951,8	25 506,3	3,2 b.	2
Turkiya	9 353,2	7 058,9	75,5	3
Fransiya	-	5 528,0	-	4
Qozog'iston	2 886,2	4 210,9	145,9	5
Afg'oniston	1 445,3	3 755,0	2,6 b.	6
Qirg'iz Respublikasi	1 171,5	3 075,0	2,6 b.	7
Turkmaniston	1 425,6	2 750,1	192,9	8
Litva	2 309,6	2 009,4	87,0	9
Tojikiston	429,1	1 293,7	3,0 b.	10
Singapur	1 317,8	1 056,4	80,2	11
Xitoy Xalq Respublikasi	30 621,0	927,4	3,0	12
Polsha	-	603,0	-	13
BAA	507,0	347,9	68,6	14
Ukraina	625,0	274,5	43,9	15
Ozarbayjon	53,1	233,7	4,4 b.	16
Eron Islom Respublikasi	128,1	169,9	132,7	17
Iroq	-	73,1	-	18
AQSH	535,4	63,6	11,9	19
Chexiya Respublikasi	108,3	60,5	55,9	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **35** tani tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2022- yil yanvar-mart)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	123 228,8	114,9
Navoiy sh.	93 685,3	115,1
Zarafshon sh.	159,5	15,1
G'ozg'on sh.	251,4	9,6 b.
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	12 195,8	136,6
Konimex	169,4	139,4
Qiziltepa	7 132,5	4,8 b.
Navbahor	6 907,3	170,1
Nurota	726,6	71,9
Tomdi	109,6	37,3
Uchquduq	209,7	53,3
Xatirchi	1 541,1	18,9
Bo'linmaydigan hajm	140,6	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Navoiy sh. – 93 685,3

Karmana t. – 12 195,8

Qiziltepa t. – 7 132,5

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Konimex t. – 169,4

Zarafshon sh. – 159,5

Tomdi t. – 109,6

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **76,0** % ulush bilan **93 685,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,1** % ulush bilan **109,6** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-mart, % da)

XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,5	3,5	3,7
Ichimliklar va tamaki	-	-	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	13,2	2,5	16,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	1,2	0,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	64,9	68,3	58,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	14,8	19,0	16,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,9	0,3	0,8
Turli xil tayyor buyumlar	1,8	3,1	2,6
Xizmatlar	1,8	2,1	1,1

2022- yil yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari tovarlari ulushi **3,0** punktga oshib, **16,2** % ni tashkil etdi.

NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI

(yanvar-mart, mln. AQSH dollari)




XSST tarkibi	Kanada		Rossiya Federatsiyasi		Turkiya		Fransiya	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Jami eksport	45,4	63,8	8,0	25,5	9,4	7,1	-	5,5
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,6	-	-	0,1	-	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	0,1	16,6	0,7	0,5	-	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	-	0,2	1,2	0,5	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	45,1	63,7	-	-	-	-	-	5,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	0,3	0,1	4,8	5,5	6,4	5,5	-	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	-	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	-	2,3	2,6	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	0,2	0,6	1,1	0,5	-	-

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari mahsulotlar kiradi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 1,3 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 1,1 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 58,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (81,7 %), safarlar (turizm xizmatlari) (9,6 %) va moliyaviy xizmatlar (8,7 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-mart, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1103,4 ming AQSH dollar qiymati 1321,1 tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 62,9 % ni tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash jami eksport hajmida 0,9 % ni tashkil etmoqda. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Qiziltepa tumanida 409,5 ming AQSH dollarini, Xatirchi tumanida 390,2 ming AQSH dollarini, Karmana tumanida 133,3 ming AQSH dollarini va Navoiy shahrida 79,6 ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-mart)



Davlatlar	2021- yil			2022- yil		
	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi*, % da
Afg'oniston	-	-	-	324,1	226,9	20,6
Eron Islom Respublikasi	124,0	128,0	7,3	167,0	162,3	14,7
Xitoy Xalq Respublikasi	102,4	93,9	5,4	102,0	149,2	13,5
Turkiya	-	-	-	102,0	119,6	10,8
Qozog'iston	2 255,2	1 210,6	69,1	240,9	111,7	10,1
Iroq	-	-	-	95,8	73,1	6,6
Ukraina	-	-	-	94,2	66,4	6,0
Belarus Respublikasi	204,9	97,1	5,5	99,0	53,2	4,8
Rossiya Federatsiyasi	141,5	223,6	12,7	36,7	42,7	3,9
Pokiston	-	-	-	24,9	39,8	3,6
Bolgariya	-	-	-	21,0	31,5	2,9
Isroil	-	-	-	13,5	27,0	2,5

* qiymat ifodasidan

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Afg'oniston (**20,6** %), Eron Islom Respublikasi (**14,7** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**13,5** %) va Turkiya (**10,8** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-mart)




2022- yil yanvar-mart oylarida import hajmi **142,2** mln. AQSH dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan **89,5** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**35,5** %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**27,0** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**17,0** %) ga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi **139,0** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **3,2** mln. AQSH dollariga yetdi.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*




XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan % da
	2021	2022		
Jami import	158,8	142,2	89,5	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	5,1	5,3	103,5	3,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,2	1,9	162,1	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,1	8,7	154,2 b.	6,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	14,7	24,2	163,7	17,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	19,5	38,4	196,8	27,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	98,2	50,5	51,4	35,5
Turli xil tayyor buyumlar	9,3	10,0	107,5	7,0
Xizmatlar	10,7	3,2	29,8	2,2

Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**35,5 %**), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**27,0 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**17,0 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**7,0 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2021- yilning mos davriga nisbatan mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**154,2** barobar), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (**96,8 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**63,7 %**), nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari (**62,1 %**), turli xil tayyor buyumlar (**7,5 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**3,5 %**) o'sgan.




NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2022- yil yanvar-mart oyida import hajmi **142,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.


MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-mart, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)*

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **42,3** va **57,7** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Turkiya va Hindiston) jami importning **87,2** % ini tashkil qiladi, bu **124,0** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022- yil yanvar-mart, % da)*



NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*



Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'tgan yilga nisbatan, % da	O'rni
	2021	2022		
Xitoy Xalq Respublikasi	16 949,7	41 842,2	2,5 b.	1
Rossiya Federatsiyasi	28 275,2	31 591,3	111,7	2
Qozog'iston	11 641,7	26 457,6	2,3 b.	3
Yaponiya	10 566,8	8 460,5	80,1	4
Koreya Respublikasi	10 031,1	6 325,8	63,1	5
Turkiya	9 391,7	5 193,4	55,3	6
Hindiston	734,4	4 149,7	5,7 b.	7
Germaniya	2 901,1	3 637,8	125,4	8
Eron Islom Respublikasi	2 097,1	3 160,3	150,7	9
Tayvan	0,1	1 731,0	32054,7 b.	10
Kanada	1 693,6	1 249,1	73,8	11
Italiya	1 718,6	1 134,2	66,0	12
Turkmaniston	625,2	930,6	148,9	13
Chexiya Respublikasi	7 837,3	686,1	8,8	14
Qirg'iz Respublikasi	250,6	644,4	2,6 b.	15
Fransiya	1 624,3	639,9	39,4	16
Litva	16 546,8	617,4	3,7	17
Ukraina	5 146,6	476,1	9,3	18
Belgiya	1 073,5	463,1	43,1	19
AQSH	17 764,9	394,8	2,2	20

2022- yil yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha **43** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-mart)



Tuman va shahar nomi	Ming AQSH dollari	O'tgan yilga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	142 156,0	89,5
Navoiy sh.	38 988,0	41,3
Zarafshon sh.	2 418,8	56,1
G'ozg'on sh.	1,0	2,3
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	76 078,9	154,7
Konimex	18,4	10,4
Qiziltepa	3 529,9	2,0 b.
Navbahor	1 420,7	108,5
Nurota	1 069,0	5,2 b.
Tomdi	129,5	5,8
Uchquduq	8 204,8	5,3 b.
Xatirchi	639,9	30,7
Bo'linmaydigan hajm	9 657,1	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari

Karmana t. – 76 078,9

Navoiy sh. – 38 988,0

Uchquduq t. – 8 204,8

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari

Tomdi t. – 129,5

Konimex t. – 18,4

G'ozg'on sh. – 1,0



Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani **53,5 %** ulush bilan **76 078,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri **0,001 %** ulush bilan **1,0** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-mart, % da)


XSST tarkibi	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	0,5	3,2	3,7
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,5	0,8	1,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,2	0,1	6,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	12,8	9,3	17,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	18,2	12,3	27,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	59,8	61,8	35,5
Turli xil tayyor buyumlar	5,9	5,8	7,0
Xizmatlar	2,1	6,7	2,2

2022- yil yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlarida 2021- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **12,3 %** dan **27,0 %** gacha, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importining ulushi **9,3 %** dan **17,0 %** gacha, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallarda esa **0,1 %** dan **6,2 %** gacha o'sdi.

2022- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **3,2** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **2,2** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **29,8** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**51,8** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,3** %) va boshqa xizmatlar (**47,9** %) dan iborat bo'ldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi

Tashqi iqtisodiy faoliyat va

savdo statistikasi bo'limi

Tel.: (99879) 223-50-43